

## TEOGODONIMLAR VA ULARNING TADQIQI

Nargiza Sattarova,  
Andijon davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Maqolada Andijon viloyati shahar va tumanlari tarkibidagi mahalla va ko'cha nomlariga asos bo'lgan (teogodonim) diniy geografik nomlar, umuman turkiy tillarda din bilan bog'liq nomlar, ota, avliyo, bobo, islom, momo, nur, ziyo, shayx kabi qo'shimchalar haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** afsonaviy nomlar, ota, avliyo, bobo, islom, momo, nur, ziyo, shayx, Xo'ja, Payg'ambar, Eshon.

### 1. Kirish va gipoteza

Har bir nomning zamirida joylashgan tarixni, madaniyat va ma'naviyatni, o'tmishning muhim haqiqatlarini aniqlash uchun nomlanishga asos bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, nolisoniy faktorlarni o'sha davr vogeligi bilan birga qiyoslab, taqqoslab o'rganish lozim deb o'yaymiz. Har bir davr, tuzum o'z g'oya va mafkurasiga tayangan holda joy nomlari majmuasini yaratadi. Masalan, qadimda din targ'ibotchilari davr mafkurasi va ma'naviyatiga bo'ysungan holda toponimikani ham o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga va ular yordamida insonlarning psixologiyasi, dunyoqarashi va diniy hissiyotlariga ta'sir o'tkazishga harakat qilishgan.

### 2. Metod va manbalar

Mamlakatimizda so'nggi yillarda muayyan hududlar miqyosida toponimlarning eng quyi ko'lamlarini o'rganishga oid ko'plab tadqiqoqlar amalga oshirilmoqda. Toponimik mikroko'lamlarning xususiyatlariga tayanib, onomastik birliklarni Andijon viloyati joy nomlari misolida lingvistik o'rganish ko'cha va mahalla nomlarining sistem-struktur jihatni bilan birga ularda yashiringan lingvomadaniy va ma'naviy jihatlarga ham oydinlik kiritish imkonini beradi.

XIII asrning birinchi choragida Andijon Farg'ona viloyatining poytaxti bo'lgan. Bobur Mirzoning yozishicha, «... Mavarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidin so'ngra, mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur» (Bobur, 1989) Demak, Andijon O'rta Osiyoning ilk dehqonchilik paydo bo'lgan va shaharsozlik madaniyatining dastlabki ko'rinishlari shakllangan o'choqlaridan birida joylashgan. Bu hududda ilk shahar Dalvarzin (mil.avv. IX-VII asrlar) va arxaik shahar Eylaton (miloddan avvalgi VI-III asrlar) xarobalari qayd etilgan. O'zining geopolitik joylashuviga ko'ra Andijon Baqtriya, So'g'd, Choch kabi tarixiy o'lkalarni Xitoy (Sharqiy Turkiston) bilan savdo, iqtisodiy va madaniy aloqalarida o'ziga xos ko'prik vazifasini o'tagan.

DOI:  
[https://doi.org/10.62499/  
ijmcc.vi6.70](https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi6.70)

Citation:  
Sattarova, Nargiza. 2024.  
Teogodonimlar va ularning  
tadqiqi  
International Journal of Media and  
Communications in Central Asia.  
7: 72-78.

Hozirgi kunda Andijon viloyatining godonimik makonida umumiy 14959 ta nom tahlil uchun to‘plangan. Nomlar, asosan, hududning 14 ta tuman, 2 ta shahar (Andijon, Xonobod) kesimida bo‘lib, 18 ta shohko‘cha, 5838 ta ko‘cha, 5224 ta torko‘cha, 2968 ta berk, 2 ta aylanma ko‘cha nomlaridan iborat bo‘lib, ular lisoniy-kulturologik jihatdan tahlil qilindi. O‘rganishlar natijasida bиргина Andijon shahrining o‘zida 505 ta ko‘cha, 518 ta torko‘cha, 29 ta berkko‘cha, 3 ta shohko‘cha (Cho‘lpon, Bobur, Alisher Navoiy), 1 ta aylanma ko‘chasi (O‘sh ko‘cha) mavjudligi aniqlandi. Albatta, ko‘cha nomlari tor va berkko‘chalarda raqamlar bilan qo‘silib takrorlanadi. Masalan, Andijon shahri To‘qqizariq mahallasi Ulug‘bek kochasi yana 9 ta tor ko‘chani ham nomlaydi. Ulug‘bek 1-tor, Ulug‘bek 2-tor kabi. Islomobod mahallasida Toshkent ko‘chasing 7 ta tor ko‘chasi mavjud. Toshkent ko‘chasi Do‘stlik, Islomobod, Navbahor mahallalarida ham uchraydi. Al-Buxoriy mahallasining Ozodlik nomi bilan ataluvchi 4 ta berk ko‘chasi bor.

### **3.Tahlil va natijalar**

Islom diniga amal qiluvchi davlatlar geonomlarida ham diniy e’tiqodlar va tushunchalar bilan bog‘liq onimlarni uchratishimiz mumkin. Ushbu nomlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan faktorlar ham turlicha bo‘ladi. Masalan, Bag‘dod (Olloh in’om etgan), Islomobod – (islom shahri) kabi.

Saudiya Arabistonda musulmonlarning muqaddas shaharlari Makka va Madina joylashgan. Islomda Makka shahrini Ummul Quro («shaharlar onasi»), Madinani esa, Madinai Rasulolloh («Alloh rasulining shahri»), yoki Madinat un-Nabi – «payg‘ambar shahri» deb e’zozlashadi. Arablar O‘rta Osiyoga islam dini bilan birga diniy topominlarning shakllanishida ham faol ishtirok etganlar. Diniy topominlarni shakllanish tarixi aniq, ammo ularni geografik obyektlarga, jumladan, aholi yashash joylari nomlariga aylanib qolish sabablari yetaricha o‘rganilmagan.

Topominlar tarkibida mozor (arabcha – «ziyorat qiladigan joy, qadamjo») so‘zi indikator vazifasini bajargan geografik nomlar ko‘p uchraydi. Masalan, So‘fimozor, Qobilmozor, Mozorli, Qoramozor, Oqmozor, Mozorqo‘rg‘on, Mozorboshi kabi topominlar shular qatoriga kiradi.

Olimlar diniy topominlar orasida avliyolar, payg‘ambarlar va har xil diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq bo‘lgan nomlarning ko‘pligini alohida qayd qilishgan. Buni Andijon viloyati ko‘cha nomlari misolida ham ko‘rish mumkin.

Masalan, Zangibobo ko‘chasi, Xovuskonota ko‘chasi, Shayxislom ko‘chasi, Aziz Deva ko‘chasi, Sahoba ko‘chasi, Sajdagoh ko‘chasi, Shafoat ko‘chasi, Shahidtepa ko‘chasi, So‘filer ko‘chasi kabi.

Xovuskon ota (Havaskon ota) ziyyaratgohi qadimdan mashhur bo‘lib qirdan qirgacha odamlar kelib ziyyarat qilib

ketarkanlar. Bu joy haqida deyarli aniq ma'lumot yo'q. Ammo ikki xil rivoyat bor, lekin mazmun-mohiyati bir-biriga o'xshashib ketadi. Har ikki rivoyat ham VII asr oxiri VIII asr boshlarida arablarning o'rtalari Osiyoga kirib kelishi bilan bog'liq bo'lib, bir qadar o'xshashligi ham mavjud. Birinchi rivoyatda kunlarning birida u arab suvoriylari bilan otda birga kelib, Farg'ona vodiysiga tushadi. Vodiyining har turli so'lim go'shalari va bog'-rog'larini ko'rib yurib, hozirda o'zi asos solgan Havaskon otaga kelib qoladi. O'zbek tilidagi, umuman, turkiy tillardagi dinga bog'liq nomlarga ko'pincha ota, avliyo, bobo, islom, momo, nur, ziyo, shayx kabi qo'shimchalar qo'shiladi va bunday nomlar aksariyat hollarda muayyan shaxslar nomlari bilan bog'langan bo'ladi: Imomota ko'chasi (Xo'jaobod), Qambarota ko'chasi (Xo'jaobod), Qoraboshota ko'chasi (Andijon), Sulug'ota ko'chasi (Buloqboshi), Toshota mahallasi (Xo'jaobod), Nurota ko'chasi (Qo'rg'ontepa), Cho'ponota ko'chasi (Qo'rg'ontepa), Zangibobo ko'chasi (Andijon), Avliyochech ko'chasi (Shahrixon), Islomobod ko'chasi (Andijon) kabi.

Andijon viloyatining Shahrixon tumani Oqoltin mahallasida Avliyochech ko'chasi bor. «Avliyo (arab. valiy so'zining ko'pligi, xudoga yaqin odam) – tasavvufda Allohnning zoti va sifatlarini yaxshi bilgan, uning buyurganlarini bajarib, gunoh ishlardan o'zini saqlovchi, dunyo lazzati va shahvoniy ishlardan yuz o'giruvchi kishi. Avliyolar payg'ambarlar darajasidan keyin turadi. Avliyolarning mozorlarini ziyorat qilib ibrat olish islom dinining hanafiylik mazhabida savobli ishlardan hisoblanadi» (Husniddinov, 2004).

H. Hasanovning yozishicha, «afsonaviy nomlar orasida xayoliy va faraziy nomlar, ya'ni biror voqeя yoki mish-mish gaplar sababli bor deb taxmin qilingan, aslida mutlaqo bo'limgan joylarning nomlari ham uchrab turadi» (Xasanov, 1963). Bunday nomlar kishilarning eshitgan ertak, hikoyalari, o'qigan kitoblari qahramonlari, afsonaviy mahluqlar nomlari bilan bog'liq holda vujudga keladi. Aslida o'zi yo'q, nomi saqlanib qolgan joy nomlari ham afsonaviy nomlar hisoblanadi.

Masalan, Andijon shahri O'zgarish, Hunarmand mahallalarida Devonaboy ko'chasi bor. Yoshi ulug' insonlarning hikoya qilishicha, «Devonaboy» haqida xalq orasida turli rivoyatlar yuradi. Ulardan biri shuki, o'tmishda davlatmand odam yashab o'tgan bo'lib, ibodatlarida Tangridan hamisha farzand tilagan. Shunda bor boyligini nochor odamlarga tarqatib yuborishni va dunyonи darbadar kezib, ibodatga kirishi tushida ma'lum bo'ladi. U tushida ma'lum bo'lgan barcha vazifani bajo etadi va farzandli bo'ladi. Albatta, bu xalq tilidagi miflardan biri. Bu kabi hikoyatlar adog'siz.

Andijon viloyatining ayrim godonimlari misolida diniy tushuncha

va atamalar yordamida hosil bo‘lgan ko‘cha nomlarini izohlashga harakat qilamiz:

Obizamzam ko‘chasi (Andijon, Marhamat). Bu so‘z «zamma-yazimmu-zumuman» fe‘lidan olingan bo‘lib, biror idishga suv lim-lim to‘lib yonlaridan oqib tushganda ishlataladi. Zamzam bulog‘ining suvi ko‘p va barakali bo‘lganligi uchun shunday nomlangan. «Zamzam, Obi zamzam – Makka shahridagi Almasjid al-Harom sahnidagi muqaddas buлоq. Ka’bayonida bo‘lib, hozirgi vaqtida pastda – alohida va maxsus joyga o‘tkazilgan suv jo‘mraklari orqali ichiladi. Rivoyatlarga ko‘ra, buлоqning paydo bo‘lishi Ibrohimning o‘g‘li Ismoilning tavalludi bilan bog‘lanadi: cho‘lda qoldirib ketilgan bibi Hojar chaqalog‘i (Ismoil) dunyoga kelgach, yuvinish va chanqog‘ini bosish maqsadida suv axtarib shu yaqindagi Safo va Marva tepaliklari orasida yetti marta yelib yuguradi. Suv topolmay obdon toliqqan ona chaqalog‘i yoniga qaytsa, uning oyoqlari ostidan suv chiqayotganligini ko‘radi. Nima qilarini bilmay shoshib qolgan bibi Hojar «zam, zam!» (ya’ni «to‘xta, to‘xta!»), deydi. Boshqa bir rivoyatda onaning mushkul ahvoldidan boxabar bo‘lgan Jabroil (as) yerdan suv chiqarib bergen, deyiladi. Lekin oradan ko‘p asrlar o‘tib buлоq ko‘zi yopilib qoladi. Vaqt kelib Muhammadning buvasi Abdulmutallib buлоq ko‘zini qayta ochadi» (Husniddinov, 2004). Jannatbog‘i ko‘chasi – (Qo‘rg‘ontepa). Ko‘chaning nomi «jannat» + bog‘i so‘zlarining qo‘shilishidan moslashuvli birikma hosil bo‘lgan. Nomning hosil bo‘lishiga asos bo‘lgan so‘z bog‘ so‘zi > Jannat va uning go‘zalligiga qiyoslanishi orqali hosil bo‘lgan. Jannat – ko‘pchilik diniy ta‘limotlarga ko‘ra, taqvodor dindorlar narigi dunyoda rohat va farog‘atda yashaydigan joy. Diniy aqida bo‘yicha, bu dunyodagi hayoti davrida imonli holida ezgu ishlar bilan shug‘ullangan kishilarga Alloh tomonidan Jannatdan joy beriladi. Jannatdagi hayat abadiy, bezavoldir. Jannatdagilarni Alloh turli ne’matlar bilan siylaydi. U yerda g‘am-g‘ussa va tashvish yo‘q. Odamlarning yaxshi ko‘rgan barcha narsasi muhayyo etiladi. Qur’onda Jannat daraxtzor, ariqlarda zilol suvlar oqib turadi, deb ta’riflanadi. U yerda insonlar qarimaydi va kasal ham bo‘lmaydi. Andijon viloyatida Jannat so‘zining o‘zi yordamida Jannat ko‘chasi (Andijon, Baliqchi, Ulug‘nor) yoki unga qiyoslanayotgan birikmalar yordamida hosil bo‘lgan joy nomlari ham uchraydi: Jannatariq ko‘chasi (Shahrixon), Jannatbog‘i ko‘chasi (Qo‘rg‘ontepa), Jannatбулоq ko‘chasi (Qo‘rg‘ontepa), Jannatdiyor ko‘chasi (Qo‘rg‘ontepa), Jannatdiyor ko‘chasi (Buloqboshi), Jannatmakon ko‘chasi (Asaka, Paxtaobod, Shahrixon), Jannatmonand ko‘chasi (Andijon) kabi.

Shafoat ko‘chasi – (Shahrixon, Izboskan, Qo‘rg‘ontepa). «Shafoat» so‘zining «yonini olish», «qo‘llab-quvvatlash», «homiylik qilish», degan ma’nolari bor. Shar’iy istilohda Alloh

taolodan gunohkorlarning gunohini afv qilishini so'rash «shafoat» deyiladi. Shafoat bir necha qismga bo'linadi. Bulardan ulkan shafoat faqat Payg'ambarimiz alayhissalomga xosdir. Bu shafoat bilan barcha xaloyiq mahshar dahshatidan xalos bo'lib, so'ng hisob qilinadi. Ba'zi qavmlarning jannatga hisob-kitobsiz kirishi uchun, gunohlari ko'pligi tufayli do'zaxga tushadigan ba'zi qavmlarni undan qutqarib qolish uchun, ba'zi gunohkorlarni do'zaxdan chiqarib olish uchun shafoatlar bor» (Muhammad Sharif Juman Ahmad Muhammad, 2006). Shahidtepa, Shahidmozor ko'chasi (Andijon) – Shahid (arab. – guvoh).

1) islomda din yo'lida halok bo'lgan shaxs. Hadislarda aytilishicha, o'z obro'si yo mol-mulki yoki joni yoxud dini, shuningdek, ahl-u oilasining himoyasi yo'lida qurbon bo'lganlar ham shahiddir. Boshqa bir hadisda vabodan, ichki xastalik bilan, g'arq bo'lib, tom bosib o'lganlarni shahid hukmida o'lganlar deyiladi. Shahidlar dafn etilishidan oldin yuvilmaydi. O'zini o'zi portlatish, o'ziga o'zi o't qo'yish, o'zini o'zi boshqa usullarda o'ldirish shahid hukmida bo'lmaydi. Qur'onda «o'zlarizingizni (bir-biringizni) o'ldirmang!» (Niso surasi, 29-oyat) deb, o'zini o'zi o'ldirish shariatda yo'q ekanligi bildirilgan;

2) vatan urushi uchun yoki haqqoniyat yo'lida qurbon bo'lgan, jonini fido qilgan odam» (Husniddinov, 2004).

Ko'cha nomi ikki qismdan, ya'ni kompozitsiya usulida yasalgan bo'lib, shahid+tepa> Shahidtepa, shahid+mozor >Shahidmozor shaklida ifodalangan. Godonimning ikkinchi qismi tepe, mozor so'zлari shahid ko'milgan tepe hamda shahidlar ko'milgan mozor ma'nosini anglatishga xizmat qilgan.

Diniy atamalar va afsonaviy yoki xalq orasida mashhur bo'lgan to'qima rivoyatlar asosida nomlangan ko'chalar hududda ko'plab uchraydi. Ularning har biriga ta'rif berishimiz, unchalik to'g'ri bo'lmaydi deb o'ylaymiz. Quyida keltirilgan hudud godonimlari tarkibida ham diniy atama va tushunchalar mavjud: Ziyoratgoh ko'chasi, Xo'jalar ko'chasi, To'ramahalla ko'chasi, So'filer ko'chasi, Shafoat ko'chasi, Sajdagoh ko'chasi, Eshon ko'chasi, Ilmitolib ko'chasi, Islomobod ko'chasi, Jannat ko'chasi, Jannatariq ko'chasi, Kavsar ko'chasi, Namozgoh ko'chasi, Sahoba ko'chasi, Sajdagoh ko'chasi, Shayxislom ko'chasi, Ulug'mozor ko'chasi kabi.

#### 4.Xulosa

Hudud bo'yicha to'plangan materiallar godonimlardagi milliy, tarixiy, etnik o'ziga xoslik, semantik-struktur ifodalarni yanada teranroq anglash imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, manzilga qo'yilgan nom o'zi ifodalayotgan joyning tarixini, tabiiy va geografik xususiyatlarini ifodalashi, o'sha joyda yashovchi aholi tili va tarixiga yot bo'imasligi, kishilarning manzilni oson topib olishlari uchun ko'maklashishi, uni aniqlashda belgi, mo'ljal

rolini o‘ynashi kerak. Joy nomlari aniq, sodda va tushunarli bo‘lishi bilan bir qatorda, unda tarixiylik, milliylik, toponimik an’anaviylik sezilib turmog‘i zarur.

Har bir davr va tuzum o‘z mafkurasi va ma’naviyatiga asoslanib turli maqsadlarda diniy tushuncha va diniy e’tiqodlar asosida shakllangan godonimlar majmuasini yaratgan. Mustaqillikdan so‘ng, islom diniga bo‘lgan munosabat o‘zgardi, xalq emin-erkin ibodat qilish, farz va sunnat amallarini o‘z vaqtida bajarish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Islomiy tushuncha va diniy bilimlar ham kengaydi. Masjid va madrasalar qurildi, diniy ta’lim beruvchi dargohlar ishlab turibdi. Bo‘layotgan o‘zgarishlarning samarasi o‘laroq, diniy atamalar, tushunchalar joy nomlarida, mahalla va ko‘cha nomlarida ham o‘z aksini topmoqda. Bunday nomlar xalqning ma’naviy dunyosining in’ikosi hisoblanadi. Ularni o‘rganish va ilmiy jihatdan to‘g‘ri talqin qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

- Do‘simov, Z. (1995). Toponimlar nominatsiyasida pozitivlik va negativlik prinsiplari // O‘zbek tili va adabiyoti. Toshkent. № 5. B. 33-37.
- Enazarov, T. (2006). O‘zbekiston toponimlari: lug‘aviy asoslari va etimologik tadqiqi yo‘llari: Filol. fan. dok. ... diss. avtoref. Toshkent. 56 b.
- Hasanov, H.H. (1965). O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. Toshkent: Fan. B. 76
- Hasanov, H.H. (1985). Geografik nomlar siri. Toshkent: O‘zbekiston. B. 81.
- Husanov, N. (2000). XV asr o‘zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. Toshkent. 25 b.
- Islom ensiklopediyasi. Husniddinov Z. tahriri ostida (2004). Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. B. 18.
- Muhammad Sharif Juman Ahmad Muhammad. Dinda savolim bor. (2006). 5-kitob Toshkent: Movarounnah. B. 4.
- Saidxonov, M.; Ergashev, A. (2016). Joy nomlari – tariximizning bir parchasi // Vodiynoma. Andijon: Print Line Group. № 1.B. 18-22.
- Xudoyberganov, R. (2008). O‘zbek antroponimiysi termining variantdorligi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. Toshkent. 26 b.
- Zahiriddin, Muhammad. Bobur. (1989). Boburnoma. Toshkent: Yulduzcha. B. 6.
- Qorayev, S. (2005). O‘zbekiston viloyatlari toponimlari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 240 b.
- G‘ulomov, P.N. (1994). Jo‘g‘rofiya atamalari va tushunchalari izohli lug‘ati. Toshkent: O‘qituvchi. B 46.
- Козлова, Г.А. (2016). Лингвокультурологический обзор урбанонимов города Курска // Перевод и межкультурная коммуникация: теория и практика. КГУ. № 2. С. 31-34.

Матвеев, А.К. (2004). Апология имени. Вопр. ономастики. Екатеринбург. № 1. С. 7-13.

Топорова, Т.В. (2020). От древнегерманского космогонического мифа к истории // Языки Народов Мира. М. С. 89-90.

Шмелёва, Т.В. (1991). Современная годонимия: семантика и семиотика // Лингвистическое краеведение: межвуз. сб. науч. тр. Перм. С. 33-37.

**Mualliflar haqida:**

SATTAROVA Nargiza – PhD, Andijon davlat pedagogika instituti, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи katta o'qituvchisi.

sattarovan333@gmail.com

ТЕОГОДОНИМЫ И ИХ ИССЛЕДОВАНИЕ

**Аннотация:** В статье рассмотрены религиозные географические названия, являющиеся основой названий кварталов и улиц в городах и районах Андиканской области, названия, связанные с религией в целом на турецких языках, такие суффиксы, как отец, святой, дедушка, ислам, момо, свет, зия, шейх, представлены мысли и комментарии.

**Ключевые слова:** религиозные, легендарные имена, отец, святой, дедушка, ислам, мать, Нур, Зия, Шейх Ходжа, Пророк, Эшан.

**Об авторе:**

CATTAROVA Наргиза – PhD, старший преподаватель кафедры узбекского языка и литературы Андиканского государственного педагогического института. sattarovan333@gmail.com

THEOGODONIMS AND THEIR STUDY

**Abstract:** The article examines religious geographical names that are the basis of the names of neighborhoods and streets in the cities and districts of the Andijan region, names associated with religion in general in Turkish languages, such suffixes as father, saint, grandfather, Islam, momo, light, ziya, sheikh, thoughts and comments are presented.

**Keywords:** religious, legendary names, father, saint, grandfather, Islam, mother, Nur, Ziya, Sheikh Khoja, Prophet, Eshan.

**About the Authors:**

SATTAROVA Nargiza – PhD, Senior Lecturer, Department of Uzbek Language and Literature, Andijan State Pedagogical Institute. sattarovan333@gmail.com